

MAMLAKATIZDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Otamurodov Nuriddin Najmuddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning eng so'nggi bosqichi bo'lib, adolatlari soliq hisoblanadi. Chunki bu soliq korxonalarining soliq solish maqsadida ijobiy faoliyat natijasidan bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, budget siyosati, foyda solig'i, budget, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. U mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yirik va murakkab muammolarini hal etishga qodir bo'lgan lokomotiv rolini bajaradi.

Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi. Prezident Sh.Mirziyoev tadbirkorlikni rivojlantirishda - "Biz yangi ish o'rinalarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizda ko'tarishimiz kerak" - deb ta'kidlagan¹.

Inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi². Chunki kichik biznes yangi-yangi ish o'rinalarini yaratib, bizning sharoitimizda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – Toshkent.: Xalq so'zi gazetasi, 2020, 24 yanvar.

² Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – Toshkent.: Xalq so'zi gazetasi, 2010, 10 dekabr.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatida o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

**1-jadval Kichik biznes sub’ektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni
va ahamiyatini belgilovchi ko‘rsatkichlar³.**

Yillar	Yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalar (mingta)	Kichik biznesda aholi bandligi (%)	Kichik biznesda band bo‘lgan aholi soni (ming)	Kichik biznesda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari (ming)	Har 1000 kishiga kichik biznes subrini to‘g‘ri kelishi ta
2000	24546	49,7	4467,1	324,5	6,4
2005	28795	64,8	6602,5	434,2	10,3
2010	24542	74,3	8643,9	480,0	11,6
2015	26900	77,9	10170,4	598,4	18,1
2017	38167	78,3	10587,7	373,3	12,2
2018	48922	74,5	12700,1	450,0	13,2
2019	92874	77,6	11850,2	524,3	13,3
2020	93214	73,8	12343,5	560,4	15,6
2021	98886	74,4	13397,5	710,2	16,5

1-jadval ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, 2000-yilda kichik biznesda aholi bandligi 49,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 24,7 foiz punktiga oshib 74,4 foizni tashkil etgan. Kichik biznesda band bo‘lgan aholi soni 2000-yilda 4467,1 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 13397,5 ming yoki 2000-yilga nisbatan 8930,4 mingtaga ko‘paygan yoki 3,4 barobarga oshgan. Shuningdek, aholining har ming kishiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes sub’ektlari soni 2000 yilda 6,4 taga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021-yilda 16,5 ta yoki 2,5 barobarga oshgan. Yuqorida keltirilgan o‘nta muhim ko‘rsatkichlar orqali kichik biznes va tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim tayanchi va asosiga aylangan holda, umumiy ko‘rinishda, mazkur sohada yildan-yilga yuksalish va taraqqiyot yuz berayotganligini ko‘rish mumkin. Xususan, aholi bandligi soni va ulushi, jami korxonalar soni va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kabi ko‘rsatkichlarning yil sayin ijobiy natijalarini qayd etishi buning yorqin dalilidir.

Umumiyl xulosa qilsak, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, kichik biznes

³ <http://www.stat.uz> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va 2000-2020 yillardagi statistik axborotnomasi ma’lumotlari asosida hisob kitoblar.

korxonalarida band bo‘lganlar sonining o‘sish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, yangi ish o‘rnlari yaratishda kichik biznes va xizmat ko‘rsatish korxonalarining ahamiyati yuqoridir.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish va rivojlantirish davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning bir usuli bo‘lib, uning shakllanishi ko‘p jihatdan olib borilayotgan soliq siyosatiga va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantiruvchi soliqlarga bog‘liqdir.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning me’yoriy-huquqiy asosi yaratilgan bo‘lib u mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi talablaridan kelib chiqqan holda doimiy ravishda takomillashtirilishi lozimdir.

Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning me’yoriy-huquqiy xujjatlarga o‘zgartirish iritish lozim.

Ayrim joylarda yil davomida bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish ob‘ektlariga yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo‘llash borasida soliq organlarining yurituvida bo‘lgan ishlarni to‘liqto‘xtatish.



Adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo‘llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021

Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansы (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (data obrazeniya: 17.01.2023)

Normurzaev U. X. 2021 yildagi soliq ma’murchiligi hamda soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yuzasidan //Internauka. – 2021. – T. 6. – №. 182 chast 2. – S. 99.